



UDK:811.512

**Iroda JURAYEVA,**  
*O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, f.f.n*  
E-mail: [irodajuraeva@gmail.com](mailto:irodajuraeva@gmail.com)

*UrDU dotsenti, PhD R.Abidova taqrizi asosida*

#### J.K.ROULINGNING “GARRI POTER” ASARIDAGI ANTROPONIMLARNING LINGVISTIK VA LINGOKULTUROLOGIK TAHLILI

Аннотация

Ushbu maqolada inson ismlarining tabiati, falsafiy, lingvistik, semantik, sinaktik, etimolik, lingvokulturologik tamoyillari, antik davrdan shu davrgacha rivojlanishi o'rganilgan. Ingiz yozuvchisi J.K.Roulingning “Garri Poter” asaridagi qahramonlarning ismlari lingvistik, semantik, sinaktik, etimolik va lingvokulturologik tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Lingvistik, falsafiy, etimologiya, semantik, sinaktik, lingvokulturologiya, ism, ismlar berilish, fantastik, arxetip.

#### LINGUISTIC AND LINGUOCULTURAL ANALYSIS OF ANTHROPONYMS IN J.K. ROWLING'S “HARRY POTTER”

Annotation

This article explores the nature, philosophical, linguistic, semantic, syntactic, etymological, and linguoculturological principles of people's names, and their development from ancient times to the present. It provides a linguistic, semantic, syntactic, etymological, and linguoculturological analysis of the names of characters in the book “Harry Potter” by English author J.K. Rowling.

**Key words:** Linguistic, philosophical, etymology, semantic, syntactic, linguoculturology, name, naming, characteristics of naming, fantastic, archetype.

#### ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ И ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ АНТРОПОНИМОВ В ПРОИЗВЕДЕНИИ ДЖ.К.РОУЛИНГ «ГАРРИ ПОТТЕР»

Аннотация

В данной статье изучается природа человеческих имен, их философские, лингвистические, семантические, синтаксические, этимологические, лингвокультурологические принципы, а также развитие с античных времен до наших дней. Проведен лингвистический, семантический, синтаксический, этимологический и лингвокультурологический анализ имен персонажей в произведении “Гарри Поттер” английской писательницы Дж.К. Роулинг.

**Ключевые слова:** Лингвистический, философский, этимология, семантический, синтаксический, лингвокультурология, имя, имянарекание, фантастический, архетип.

**Kirish.** Inson ismlarining tabiati haqidagi ilmiy qarashlar mantiq, falsafa va tilshunoslikda shakllangan va antik davrdan to hozirgi kungacha bo'lgan uzoq davrni o'z ichiga oladi. Qadimgi yunon falsafasi davridayoq ismning o'ziga xos xususiyatlari haqida bahs-munozalar bo'lgan. Bunday tortishuvlar natijasida ism sharhining ikki yo'nalishi paydo bo'ldi: ismning mazmuni, ifodalayotgan predmet nomining tabiatiga mos keladi degan fikrni bildirgan (Geraklit, keyinchalik stoiklar, Pifagorchilar shunday deb ishonishgan), boshqa yo'nalish tarafdorlari esa boshqa pozitsiyani egallagan, ayniqsa, shaxslarga nom berishning ongli nomlash g'oyasini ishlab chiqqan (Demokrit, Aristotel, Platon). Bugungi kunda Platonning nom va obyektning asl motivatsiyasi o'rtasidagi aloqaning yo'qolishi va buning natijasida ism-narsa munosabatlari nomlash an'analarga asoslanishi haqidagi fikrlari juda qiziqarli va dolzarbdir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Ismning asosiy xususiyatlarini ilmiy tadqiq etish, fanda ancha kech paydo bo'lgan bo'lsada, nomlash har doim faylasuflar, tilshunolar, ilohiyotshunolar va madaniyatshunolarning diqqat markazida bo'lib kelgan va natijada inson ismlari XX asr gumanitar fanlarining eng dolzarb muammosiga aylandi. Ushbu izlanishlar sohasida P.A.Florenskiyning asarlari alohida o'rin egallaydi, u tilning falsafiy muammolariga qiziqishi nomlarni shaxs bilan uzviy aloqada ko'rib chiqadi [1]. Ushbu faylasufning asarlari rus diniy falsafasini yoritishga bag'ishlangan bo'lib, unda shaxs va uning ismi o'rtasidagi munosabatlar, uning asosiy me'zoni sifatida ismning mohiyati va so'zning tabiati kabi muammolar o'rganiladi. Bundan tashqari, mashhur faylasuf Jon Styuart Millning ta'kidlashicha, shaxs nomlari bir narsani boshqasidan farqlash uchun qo'yilgan ma'nosiz belgilaridir deb ta'kidlaydi ammo, bu fikr ko'pincha nomlar semantik jihatdan ma'nosizlashtirilmagan, balki maksimal ma'noga ega degan nuqtai nazarlar bilan qarshi olingan [2]. Demak, ismlardagi ma'no o'quvchilarning

qahramonlar shaxsiyatini qanday idrok etishiga ta'sir qiladi. Ushbu maqolada esa, ism va familiyaning tarkibiy qismlari ularning ism sohiblarining lingvistik, etnik, ijtimoiy va madaniy guruhlariga mansublik jihatlari ko'rib, tahlil qilinadi.

“Antroponim (grekcha anthropos – odam va onyma – ism so'zlaridan olingan) inson ism, shariflarini o'rganadi. Antroponimika – bu onomastikaning bir bo'limi bo'lib, antroponimlarni – odamlarning ismlarini, patronimlarni (otasining ismi), familiyalarni: avlod nomlarini, laqablarni va taxalluslarni, kriptonimlarni (yashirilgan ismlarni) o'rganadi. Shuningdek, badiiy asarlardagi antroponimlar, folklor, afsonalar va ertaklardagi qahramonlarning ismlarini ham o'rganiladi. Antroponimika xalq va kanonik (“diniy qoidalarga mos”, “cherkov tomonidan tasdiqlangan” ma'nosida ishlatilgan. Demak, kanonik shaxsiy ismlar deganda, diniy kitoblarda uchraydigan yoki cherkov tomonidan ma'qullangan ismlar nazarda tutiladi) shaxsiy ismlarni, shuningdek, bir ismning turli shakllarini: adabiy va dialektal, rasmiy va norasmiy shakllarini ajratib o'rganadi. Har bir etnos har bir davrda o'z antroponimikasiga – shaxsiy ismlar ro'yxatiga ega bo'lgan” [3].

Shunday qilib, inson ismi orqali jamiyatda boshqalardan ajralib turadi. Insonga berilgan ism uni o'ziligini anglatadi. Har bir insonning ismi o'sha insonni boshqa shaxlardan farqlaydi. Insonga qo'yilgan ism shu insonning jismi, taniga aylanadi, uning xatti xarakterini ifodalaydi [4]. Bundan tashqari, shaxsning ismi va unvoni, uning maqomi, siyosiy intilishlari yoki qahramonlarning munosabatlarini rasmiylik/norasmiylik darajasi kabi jihatlarni aks ettirishi mumkin. O'quvchilarning munosabati nuqtai nazaridan, ismlar ichidagi ma'no qahramonlarning ijtimoiy va individual ravishda qanday idrok etilishiga bog'liqligini o'rganish mumkin. Mualliflar qahramonlariga simlarni asar yozishdan ancha oldinroq tanlaydilar va o'z qahramonlarini tanlangan ismlar orqali xarakterini, uning ijobiy, salbiy

qahramonligini, uning kuch qudratini, nimalarga qodir ekanligini ochib beradi. Boshqacha qilib aytganda, o'quvchi asardagi qahramonlarning ismlarini o'qish orqali, ularning kim, qanday obraz ekanligi haqidagi birinchi ma'lumotlarga ega bo'ladi. Masalan, biz tahlil qilayotgan "Garri Poter" asaridagi qahramonlarning ismlari orqali ikki xil dunyo, sehrgarlar dunyosi va oddiy odamlar dunyosi o'rtasida ko'rinmas, ammo mavjud chegarani idrok etishni ko'rishimiz mumkin.

**Tadqiqot metodologiyasi.** O'quvchilar Garri Poter ismini eshitishi bilan ko'z oldilarida ko'zoynak taqqan, yosh sehrgarning qiyofasi gavdalanadi. Demak, ismlarning yashirin ma'nolari – pragmatikasi, ularning ichki hissiyotlari, kechinmalari, ijobiy yoki salbiy obrazi, xarakteri o'quvchi kitobni sahifalarini o'qigan sari ochilib boraveradi. Ismlar jamiyatga, shaxslarga va ism egasiga o'zlik haqida ma'lumot yetkazishi ushbu tadqiqotning maqsadi bilan chambarchas bog'liqdir. "Garri Poter" asari muallifi J.K.Rouling ham o'z kitobida arxetiplar, mashhur afsonalar, rivoyatlar va folklor qahramonlarning ismlaridan foydalangan. Bunday lingvokulturologik birliklar asar qahramonlari shaxsiyatini shakllantirishga yordam beradi.

Lingvokulturologiya til birliklarining madaniy ahamiyatiga ega bo'lgan jihatiga, xalqning madaniy dunyosiga til prizmasi orqali nigoz tashlashga, shuningdek til madaniyatni ro'yogga chiqaruvchi vosita ekanligiga asosiy e'tibor qaratadi.

Mifologiyalashtirilgan til birliklari. Bular arxetiplar va mifologemalar, udumlar va rivoyatlar, taomillar va urf-odatlar sanaladi. Har bir aniq frazeologizm butun boshli bir mif emas, balki mifologema aks etadi. Mifologema – bu mifning "bosh qahramoni", uning muhim personaji yoki vaziyati bo'lishi va u mifdan mifga o'tishi mumkin. Mifning asosida odatda arxetip yotadi. Arxetip – individlar ongida paydo bo'ladigan va madaniyatda tarqaladigan turg'un obrazdir. Arxetip tushunchasi K.G.Yung tomonidan 1919 yilda e'lon qilingan "Instinkt i bessoznatelnoye" maqolasida muomalaga kiritilgan. K.G.Yungga ko'ra, barcha odamlarda tush, miflar, ertak va afsonalardan paydo bo'ladigan ayrim umumiy ramzlar – arxetiplarni g'ayriixtiyoriy shakllantiradigan tug'ma qobiliyat bo'ladi. Arxetiplarda shaxsiy tajriba oqibatida emas, balki ajdoddan meros qilib olingan "kollektiv g'ayriixtiyoriylik"ni ifodalaydi [5]. K.Yung genetik nazariya doirasida arxetipning mifologiya bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlaydi. Binobarin, mifologiya arxetiplarning omboridir [6]. Garchan, N. Fraye ta'kidlaganidek, adabiyotda qahramonlar, tasvirlar va mavzular, ularning qayerda va qachon yashashidan qat'iy nazar, universal ma'nolarni va insoniyatning asosiy tajribalarini ramziy ravishda ifodalovchi arxetiplar hisoblanadi [7]. Arxetip adabiyotda tez-tez takrorlanadigan va inson tajribasining elementi sifatida tan olinadigan, turli xil usullar, ramzlar, afsonalar va janrlarning murakkab tasnifini yaratadigan ramz sifatida ta'riflanadi. Adabiy arxetiplarga sexrli hikoyalarda qahramonlari, yerga monand turli makon va zamonlarga tegishli parallel omlarda kechadigan voqealarni tasvirlaydi [8].

Karl Yungning fikricha, "kollektiv g'ayriixtiyoriylik" chuqur o'rnatilgan bo'lib, o'tmishdagi vaziyatlar, voqealar va munosabatlarni, xotiralarini o'z ichiga oladi [9]. Bu "kollektiv g'ayriixtiyoriylik" har bir insonning ongidan yuqorida mavjud bo'lgan insoniyatga xos bo'lgan boshlang'ich xotiralar to'plamidir. Arxetipik tanqid shuni taxmin qiladiki, barcha odamlarda asosan bir xil javob uyg'otadigan ramzlar, tasvirlar, qahramonlar va motivlar to'plami mavjud. O'quvchilarning ongida mavjud bo'lgan arxetipik obrazlar individual matnning adabiyotning universal jilvalari bilan bog'lash orqali aniqlashga yordam beradi. Yausning so'zlariga ko'ra, arxetipning o'quvchilarning ma'lum reaksiyalarini qanday qo'zg'atishini kuzatish qiziqdir. Demak, o'quvchilar Garrini tushunishga qodir, chunki har birimiz oliy sinovlarni boshdan kechiramiz [10].

O'quvchilar J.K. Rouling asarlaridagi qahramonlar ismlari orqali o'zlarida ko'plab qahramonlarning ochilgan qirralarini bilish imkoniyatlariga ega bo'ladi. Muallif asarning ayrim sahifalarida qahramonlar xarakteridagi ba'zi jihatlarni e'tibordan chetda qoldirgan. Qahramonning ismi orqali kitobxon o'tkazib yuborilgan bunday xislatlarni tushuna oladi va matn bilan bog'lay oladi. Misol uchun, sehrgarlar maktabidagi farroshning ismi Argus, bu yunon mifologiyasidan kelib chiqqan

va orqasida ham "mingta ko'zi bor qorovuldir" bu tasodifiy tanlov bo'lmaganligi aniq (farrosh bo'lib, mingta ko'zi borligi, u uchun zarur qobiliyatdir). Yana bir misol - Garrining tog'asi. U itga aylana oladi va tasodifan uning ismi Sirius bo'lib, ko'pincha "It yulduzi" deb ataladi va bu yulduz turkumlaridagi "Katta it" yulduzini bildiradi. Sirius shu sifat bilan tanilgan [11].

J.K. Rouling arxetiplar, afsonalar va folkloridan foydalangani kabi, o'z qahramonlarining ismlari uchun turli tillardan o'zlashgan so'zlarni ham ishlatadi. Misol uchun, o'qituvchilardan birining ismi Severus bo'lib, u lotin tilidan kelib chiqqan va "qo'pol/qat'iy" degan ma'noni anglatadi. Bu oxirgi ikki atama uning shaxsiyatidagi xususiyatlardir; u bosh qahramon eng yomon ko'radigan o'qituvchidir.

Asardagi bosh qahramon Garri ikki xil dunyoni birga bog'lovchi obraz hisoblanadi. Garri "yetim" arxetipi orqali Injildagi Muso qahramonidan boshlab millionlab o'rta asrdagi va undan keyin yashab ijod qilgan Charlz Dikkensning "Oliver Tvist"igacha va undan ham oldingi davrlarni eslash mumkin. Masalan, bolalar adabiyoti "Toshdagi qilich" asaridagi qiroli Artur yetimlar haqida hikoya qiladi. Unda Artur (Vort deb ataladi) kichkina, dag'al sochli yetim bola bo'lib, sehrgar Merlin bilan uchrashadi. Merlin uni qasrga olib boradi, ta'lim va tarbiya beradi (bu voqea Gogvartsda Garri Poter bilan sodir bo'ladigan voqealarga juda ham o'xshash, xuddi Dambldor Garriga ustozlik qilgani kabi). Roal Dalning "Matilda" asaridagi qahramonning hayoti ham Dursli oilasi bilan Garrining hayotiga o'xshaydi. Matilda ham yetim va Vormvudlar unga yomon munosabatda bo'lishadi [12].

**Tahlil va natijalar.** Asardagi bosh qahramon Garri ismini tahlil qilamiz. Etimologik jihatdan. Garri "Henry"ning o'rta ingliz tilidagi shaklidan kelib chiqqan, "Henry" nemis tilidagi "Heinrich" ismidan kelib chiqqan bo'lib, "heim" (uy, mulk) va "ric" (hokimiyat, hukmdor) qo'shimchalaridan tashkil topgan. "Garri" "uy hukmdori" yoki "qudratli mulk egasi" degan ma'noni bildiradi. Asarda Garri o'zining ba'zi xatti-harakatlarini to'g'ri deb hisoblash ham, lekin uning atrofidagi ko'plab boshqa qahramonlar uni "potty" yani "telba, ahmoq" deb o'ylashadi. Asarda Garri Poter qonunbuzarlikka boshlashga tayyorligini ko'rsatadi. Sehrgarlar olamida ajdarni olib yurish qonun bilan ta'qiqlangan bo'lishiga qaramay, Garri do'sti ba boshqalarga yordam berish uchun bu qonun qoidani buzadi. Bu uning axloqiy tamoyillarga sodiqligini va do'stlariga bo'lgan sadoqatini namoyon qiladi. Boshqacha qilib aytganda, bu uning qanchalik botir, do'stparvar, sadoqatli ekanini ko'rsatadi, shuning uchun u qonunni ham chetlab o'tishga tayyor. Qonunbuzishining asosiy sababi do'sti va yordamga muhtoj odamlarga yordam berish edi.

Potter bu kasbga oid familiya bo'lib, kulolchilik bilan shug'ullanuvchi shaxs deganini bildiradi. Potter o'rta ingliz tilidagi "potter(e)" so'zidan olingan bo'lib, "ko'zalar yasovchi" yoki "sotuvchi" ma'nosini anglatadi. Bu oddiy, keng tarqalgan familiya bo'lib, amaliy hunarmandchilikdan kelib chiqqan familiyadir.

"Potty" (telba, ahmoq). Garrining harakatlari ba'zan atrofidagilar tomonidan bema'ni yoki telba deb hisoblanadi, ammo u ba'zan o'ziga maqbul bo'lgan ishlarni qiladi. Kitobxon o'zing dunyoqarashlari va ehtiyojlaridan kelib chiqib, qahramonning ko'rinishi xaqida turlicha fikrlaydi. O'quvchilar qahramonlarning ko'rinishlarini yodda saqlaydi va asarni o'qishi davomida bu obrazlarni kengaytiradi. Demak, bu jumladan Garrining ishlari ba'zan shubhali bo'lsa ham, o'quvchi qahramonni shaxsan o'zi qanday tasavvur qilgani muxim hisoblanadi. Garchan, Garrini ba'zida bema'ni ishlar qilishini bilishsada, bu uni o'quvchilar ongida yanada jonliroq gavdalandiradi, chunki har bir o'quvchi qahramonning kim ekanligini o'zicha tasavvur qiladi, tushunadi, har kimning dunyoqarashi turlichadir.

Sintaktik. Ism + Familiya - bu g'arbda qabul qilingan standart nomlash konvensiyasi. "Harry" inson ismi. "Potter" esa nasl-nasabni – familiyani bildiradi.

Semantik. "Harry"ning etimologik ildizlari "hukmdor" degan ma'no nazarda tutsada, zamonaviy ingliz tilida "Harry" bu ma'no unutilgan. Bu tanish, do'stona ism, kitobdagi kontekstga ko'ra Garri "Harri" ismi "qobiliyati yoki taqdiri baland" degan ma'nolarga ega. "Potter" so'zi "loy" bilan bog'langan,

“hunarmand, oddiy odamni” ifodalaydi. “Poter” ismi “Garri Poter”dagi bosh qahramon taqdiri shakllantiradi ya’ni “Potter” nomi keyinchalik uning mashhurli va sehrli qobiliyatlari bilan qiziqarli kontrastni yaratadi. Bu uning ismi taqdiri bilan ismi jismi bilan bog’liq ekanligini ko’rsatadi.

Lingvokulturologik jihatdan. Garri “Harri” Buyuk Britaniyada keng tarqalgan inglizcha ism. Ushbu ism kitobxon ko’z o’ngida bir qarashdan oddiylik tuyg’usini uyg’otadi. “Potter” Britaniya va boshqa ingliz tilida so’zlashuvchi mamlakatlarda keng tarqalgan familiyadir. Bu familiya shaxsning ishchi sinfi yoki o’rta sinfga mansubligini ko’rsatadi. J.K. Rouling o’zining intervyularida ushbu asarda ataylab shu soddada familayani tanlaganini aytgan. “Garri Poter” esa hammaga ma’lum ism va keng tarqalgan familiyaning kombinatsiyasi. Garri oddiy ijtimoiy sinfdan kelib chiqqan shaxs sifatida beriladi.

“Garri Poter” nomi sirtdan qaraganda juda oddiy va kamtarona. Uni talaffuz qilish, eslab qolish va asotastasiya qilish juda oson. Biroq, uning kamtarligi, kelib chiqishi asarda keng ma’nolarni o’z ichiga oladi. Ushbu oddiylik Garri yashaydigan g’ayrioddiy dunyo va taqdiri bilan keskin farq qiladi. Bu nom o’quvchini Garri oddiy sharoitlardan aql bovar qilmas dunyoga tushib qolgan “boshqa bir qahramon”ni ko’rishga tayyorlaydi. Garri Poter ham dunyodagi qora kuchlarga qarshi kurashgan qahramonlar, ularning bosib o’tgan uzoq mashshaqatli yo’llari va nihoyat g’olib arxitiplari timsolida gavdalanadi.

Shuningdek, asardagi qahramonlarga turli vaziyatlarda turlicha murojaat qilinadi. Masalan, Garrining o’rtoqlari unga “Garri” deb murojaat qiladilar. Maktab professorlari esa Garrini “Janob Garri” (Mr Garry) deb murojaat qiladi. Asardagi qahramonlarga murojaat qilish ularning kuchi, qudrati, mavqei, lavozimi, ilmi va salohiyati kabi sifatlaridan kelib chiqiladi.

Asardagi yana bitta qahramon “Voldemort” ismini tahlil qilamiz. Voldemort – “Garri Poter” seriyasidagi bosh antagonisti, qora sehrar, o’lim yoyuvchilarning yetakchisi. U mugllarga (sehr qila olmaydigan odamlarga) nisbatan nafratga to’lib toshgan va sehrarlar olamida ulkan hokimiyatga erishishga intiladi. Voldemort o’zining shafqatsizligi, qora sehrga moyilligi va o’limdan qo’rqishi bilan mashhur.

Etimologiya. “Voldemort” fransuz tilidan olingan bo’lib, “vole de mort” o’lim parvozi degan ma’noni anglatadi. Odatda “burgutning birinchi parvozi” degan ma’nosini ham anglatadi, ammo bu holda “vol”ni o’g’irlik deb tushunish mumkin. O’rta asrlarda Voldemort ismli “zulmat” “yovuzlik” sehrari bo’lgan. Boshqa tilda Voldemortist “yovuzlik hukmdori” yoki “Qorong’u Lordi”(Black Lord) degan ma’noni anglatadi. Afsonalarga ko’ra, Voldemortist Artur shoh bo’lishidan oldin Merlinni sehrlab, yaxshi odamlarni afsunlab, yovuzlarni yo’q qilishga uringan. Afsonalarda ta’kidlanishiga ko’ra, Merlin Voldemortistni oddiy falajlanish afsuni yordamida yo’q qilgan, uni ko’p boshli ko’l

hayvoniga yedirgan, sehrangan odamlarni ozod qilgan va yovuz odamlarni yo’q qilgan.

Semantika. “Vol” lotincha “volo” (xohlash) so’zidan olingan bo’lib, o’lim istagi yoki “o’lim tilagi” degan ma’noni anglatadi. Shimoliy german tillar oilasiga kiruvchi daniya tilida “vold” zo’ravnoklik degan ma’noni anglatadi. Bundan tashqari, daniya tilida “volde” “sabab” degan ma’noni ham anglatadi va “valde” so’zidan ya’ni “buyuk”, “o’ta”, “kuchli”, “qudratli” degan ma’nolarni anglatadi.

Sintaksis. Voldemort bu yerda “ot”. Professor MakGonagall ko’pincha Voldemortga quyidagicha murojaat qiladi: “u kimning-ismini-ayta-olmaymiz” (you-know-who). Bu eng ko’p ishlatiladigan murojaat shakli. U (he) ba’zida shunchaki “u” deb ham ishlatiladi. Bu ham “o’lim parvozi”, “o’limni o’g’irlash”, “o’lim istagi”, “o’lim tilagi” degan ma’nolarni anglatadi. Ko’pchilik Voldemortning ismi to’g’ridan-to’g’ri o’lim bilan bog’liq bo’lganligi, behosiyatligi va undan qo’rqishganligi sababli uni ismi bilan chaqirmaydi. Qora Lord (Dark Lord) bu uning o’lim yoyuvchilar orasidagi unvoni bo’ladi. Shu sababli, Voldemort nafaqat adabiy qahramon, balki madaniy arxetip sifatida ham yovuzlikning, o’lim qo’rquvining va hokimiyatga intilishning timsoliga aylanadi. Voldemortni o’z ismini anagramma orqali o’zgartirib, “I am Lord Voldemort” ya’ni “Men lord Voldemortman” degan iborani ishlatadi. Bu bilan Voldemort o’zining shaxsiyatini yashirish va o’ziga xos qo’rquv uyg’otish uchun bu nomlardan foydalanadi. Uning o’zi ham o’limdan qo’rqadi va o’z nomini boshqalar tomonidan aytilishidan ham qo’rqadi, chunki uning ismi qanchalik chaqirilaversa uni shunchalik zaiflashtiradi deb hisoblaydi. Voldemortning ismi shunchalik qo’rqinchilik, sehrarlar olamida uni tilga olishdan qo’rqishadi. Bu holat madaniyatda tabu tushunchasini aks ettiradi, ya’ni ba’zi narsalar shunchalik xavfli yoki hurmatsiz hisoblanadiki, ularni tilga olish ham mumkin emas. Voldemort lingvomadaniy birlik sifatida “o’lim”, “yovuzlik”, “qo’rquv”, tabu va abadiyot bilan bog’liq bo’lgan murakkab ma’nolarni o’z ichiga oladi. U nafaqat ism, balki madaniyatdagi ma’lum bir tushunchalar va his-tuyg’ularni ifodalovchi ramzdir.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, antroponimlar jamiyatda shaxsning o’zini anglashda, ismning mohiyati va ahamiyati kattadir. Ismlar qahramonlar hayotida muxim rol o’ynaydi. Ismlar qadim zamonlardan beri falsafiy va ilmiy munozaralarning markazida bo’lgan, ularning tabiatiga oid turli qarashlar mavjud. Ismlar semantik jihatdan ma’noga boydir. Ismlar o’quvchilarning qahramonlar shaxsiyatini idrok etishiga sezilarli ta’sir ko’rsatadi. Ismlarning adabiyotda ramziy ma’nolarga ega. Ularning kelib chiqishi, mifologik voqea xodisalar qahramonlar shaxsiyatini chuqurroq anglashga yordam beradi. Arxetipik obrazlar va mifologik elementlar adabiy asarni boyitib, o’quvchilarga qahramonlar va voqealarni yanada yaxshiroq tushunish imkonini beradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Флоренский П.А. История философии философия историческая литература. 2000. - С.270.
2. Keats-Rohan K. S. B. Prosopography approaches and applications a handbook. Prosopographical Research, Linacre College, University of Oxford. 2007. p. 156.
3. Лингвистический энциклопедический словарь. – М.: Большая Российская энциклопедия, 2008 (электронное издание). – с. 336.
4. Keats-Rohan K. S. B. Prosopography approaches and applications a handbook. Prosopographical Research, Linacre College, University of Oxford. 2007. p. 178.
5. Jung C. The Spirit in Man, Art, and Literature. London: Routledge. 1996. pp.84-85.
6. Маслова В. А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Издательский центр «Академия», 2001. С. 37-38.
7. Frye N. The Archetypes of Literature in Sugg R. Jungian Literary Criticism. USA: Nothwestern University Press. 1957. - P.26.
8. Toshpulatova V. I. Fentezi janridagi romanlarning ingliz tilidan o’zbek tiliga tarjimasida lingvopragmatik va lingvomadaniy aspektlar (J.Rouling romanlari misolida). Avtoref. filol. fan. dok. ... diss. – T., 2025. 12 b.
9. Jung C. The Spirit in Man, Art, and Literature. London: Routledge. 1996. P.84.
10. Keats-Rohan K. S. B. Prosopography approaches and applications a handbook. Prosopographical Research, Linacre College, University of Oxford. 2007. P. 266.
11. Colbert D. The Magical Worlds of Harry Potter. London: Penguin Group. 2001. p. 43.
12. Colbert D. The Magical Worlds of Harry Potter. London: Penguin Group. 2001. p. 49.
13. Jofre M.A., Blanco M. Para leer al lector. Una antología de la literatura post estructuralista. Santiago de Chile: Universidad Metropolitana de Ciencias de la Educación. 1978.
14. Juraeva I.A. Formation and development of anthroponymic dictionaries in English lexicography. American Journal of Philological Sciences. Vol. 4 No. 01 (2024): Volume 04 Issue 01. pp. 20-24.
15. Juraeva I.A. Lexical-semantic Features of Anthroponyms in English Language. Journal of Contemporary Issues in Business and Government. Vol. 27, No. 4, 2021. p.20-23. <https://cibg.org.au/>
16. Jurayeva I.A. Ingliz va o’zbek antroponimik lug’atlarida atoqli otlarning berilish usullari. Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti. 4/ 2024.80-86 b.
17. [www.harrypotterfans.net/potterica/index.html](http://www.harrypotterfans.net/potterica/index.html) - accessed September 2011.